

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

4-2023

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

A.A.Abduxalimov	
Andijon viloyatida sog'liqni saqlash muassasalari faoliyatidan.....	213
F.K.Yusupjanova	
Turli tizimli tillarda "head/bosh/ голова" somatik komponenti bilan makallarning qiyosiy-tipologik o'rganish	217
F.M.Mamadjanov	
Katta ma'lumotlar asrida milliy xavfsizlik tadqiqotlari.....	227
M.Komilova	
Imkoniyati cheklangan o'quvchilarni ta'limga jalb qilish.....	233
A.A.Abduxalimov	
Namangan viloyatidagi shifoxonalar faoliyati va ularning moddiy-texnik holati.....	239
I.R.Asqarov, M.M.Akbarova, Z.A.Smanova	
Portulaca oleracea o'simligining kimyoviy xossalari	242
S.M.Isroilova	
Muloqot qilish rus tilini oqitish jarayonida talabalarning kommunikativ kompetensiyasini shakllantirish.....	249
Sh.V.Djalolov	
Umumta'lim maktab tizimida boshlang'ich sinf o'quvchilarining jismoniy tayyorgarligi va organizmning funksional holatining monitoringi.....	253
A.A.Qambarov	
Marg'ilonlik katta ashula darg'alari.....	260
D.T.Samatov	
Falsafa fanini o'qitishda multimediyaviy storitellingdan foydalanishning samaradorligi.....	265
A.U.Azimov	
Yuksak axloqiy yoshlarni tarbiyalashda fuqarolik jamiyatining o'rni	269
A.A.Ahrorqulov	
Oliy ta'lim tizimida korrupsiyaga qarshi kurash.....	275
D.A.Mamajonova	
Oliy ta'lim sohasida korrupsiya va korrupsiyaviy xavf-xatar tushunchalari.....	279
M.M.Mamadaliyeva	
Oliy ta'lim sohasida korrupsiyaviy xavflar tahlili	282
U.O'.Musoyev	
Buxoro xonligida yer egaligi munosabatlari va ularning xududiy tavsifi.....	286
D.Y.Tashnazarov	
Yunon-rum kurashchilarini texnik usullarga o'rgatishda umumiy va maxsus tayyorgarligi	291
M.M.Alimova	
Ikkinchi jahon urushi arafasida mehnat intizomi (Buxoro viloyati)	299
R.Sh.Bozorova	
Gidropoetonimlarning onomastik birliklar tizimidagi o'rni.....	303
E.X.Zoyirov	
Ya'qubi Charxiyning "Tafsiri" da pir-murshid tushunchasi	307
A.S.Inomov	
Ichki ishlar organlarida amalga oshirilayotgan ma'naviy-ma'rifiy islohotlar strategiyasi.....	311
I.S.Aslonov	
O'zbekistonning mustamlakachilik davrida savdo va transport yo'llari tarixi	316
B.M.Jo'raquziev	
Yangi O'zbekistonda ijtimoiy siyosat masalalari	320
O.Radjabov	
Qirg'izistonda temir yo'llar tarixi	324
Y.Shukurillaev	
Sho'ro Rossiyasi tomonidan Buxoro amirligining bosib olinishi jarayonida to'plagan razvedka ma'lumotlari tahlili	330
M.M.Mamatkodiroy	
Maktablarda raqamli texnologiyalardan foydalanish metodologiyasini yaratish uchun asosiy tizimli komponentlar.....	333
M.Sh.Qoraboeva	
Islom falsafasida intellektual faoliyat mezonlariga doir qarashlar tahlili	338

YANGI O‘ZBEKISTONDA IJTIMOY–SIYOSAT MASALALARI
ВОПРОСЫ СОЦИАЛЬНОЙ ПОЛИТИКИ В НОВОМ УЗБЕКИСТАНЕ
ISSUES OF SOCIAL POLITICIANS IN THE NEW UZBEKISTAN

Jo‘raquziev Baxriddin Mirxojiddin o‘g‘li¹

¹Jo‘raquziev Baxriddin Mirxojiddin o‘g‘li — Farg‘ona davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi.

Annotatsiya

Mazkur maqolada ijtimoiy siyosat tushunchasi, uning mazmuni va maqsadi haqida qisqacha to‘xtalib, Yangi O‘zbekistonda barcha fuqarolar hayot sifatini oshirish va aholining hayotiy ehtiyojlarini qondirishni ta‘minlaydigan mexanizmlar yordamida, turli ijtimoiy manfaatlar muvozanati asosida ijtimoiy muhit va ijtimoiy kelishuvni yaratish to‘g‘risidagi ayrim fikr-mulohazalar bayon qilingan.

Аннотация

В данной статье будет кратко рассмотрено понятие социальной политики, ее смысл и цель, а также необходимо создать социальную среду и общественное соглашение, основанное на балансе различных социальных интересов, с помощью механизмов, обеспечивающих улучшение качество жизни всех граждан и удовлетворение жизненных потребностей населения в Новом Узбекистане.

Abstract

In this article, the concept of social policy, its meaning and purpose will be briefly discussed, and it is necessary to create a social environment and a social agreement based on the balance of various social interests with the help of mechanisms that ensure the improvement of the quality of life of all citizens and the satisfaction of the population's vital needs in New Uzbekistan.

Kalit so‘zlar: *ijtimoiy davlat, ijtimoiy siyosat, ijtimoiy himoya, ijtimoiy soha, inson huquq va erkinliklari, xalq farovonligi, inson manfaatlari.*

Ключевые слова: *социальное государство, социальная политика, социальная защита, социальная сфера, права и свободы человека, общественное благосостояние, интересы человека.*

Key words: *social state, social policy, social protection, social sphere, human rights and freedoms, public welfare, human interests.*

KIRISH

Biz mamlakatimiz yangilanish davriga qadam qo‘ygan birinchi kunlardan boshlab ochiq, pragmatik va amaliy tashqi siyosat yuritish, dunyodagi barcha taraqqiyparvar mamlakatlar, ayniqsa, qo‘shni davlatlar bilan yaqin do‘stlik va hamkorlik munosabatlarini mustahkamlashga katta ahamiyat qaratmoqdamiz.

Zero prezidentimiz ta‘kidlaganidek: “Yangi O‘zbekistonni o‘z hayotidan rozi, baxtli insonlar mamlakatiga, har tomonlama rivojlangan ijtimoiy makonga aylantirish ushbu yo‘nalishdagi islohotlarimizning asosiy maqsadidir[2:199]”.

O‘zbekiston bugun o‘zining uzoqni ko‘zlagan siyosati bilan mintaqamiz va jahondagi siyosiy jarayonlarning faol ishtirokchisiga aylandi.

Inson huquq va erkinliklarini ta‘minlash, so‘z va diniy e‘tiqod erkinligi, gender tenglik bo‘yicha erishayotgan yutuqlarimiz nufuzli xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikda izchil mustahkamlanib bormoqda. Prezident Sh.Mirziyoyevning ijtimoiy adolat va ijtimoiy himoyaga muhtoj kishilar manfaatlarini himoya qilishga bel bog‘lagani uning mamlakat siyosiy kuchlari so‘l qanoti bo‘lishini belgilaydi. Ijtimoiy sohani rivojlantirish bo‘yicha kompleks tadbirlar, birinchi navbatda, fuqarolarni ijtimoiy himoya qilish va sog‘lig‘ini saqlashni kuchaytirish, aholini arzon va sifatli dori vositalari bilan ta‘minlash, fuqarolarning bandligi va real daromadlarini oshirish, arzon ijtimoiy uy-joylar qurilishini kengaytirish, nogironligi bo‘lgan shaxslarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlashga qaratilmoqda.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Mustaqillik yillarida ijtimoiy siyosat, ijtimoiy himoya yo‘nalishida o‘tkazilayotgan islohotlar, ularning mazmun-mohiyati avvalambor, O‘zbekiston Respublikasi birinchi prezidenti I.A.Karimov hamda prezident Sh.M.Mirziyoyevning asarlari, nutqlari hamda ma‘ruzalarida o‘z aksini topgan.

Davlat rahbarlari o'z asarlarida O'zbekistondagi ijtimoiy siyosatning barcha jabhalarini qamrab oluvchi islohotlar, konsepsiyalar, yo'nalishlar, g'oyalari hamda fikr-mulohazalarni xalq farovonligi tamoyillariga tayanib amalga oshirish masalalari haqida fikr yuritadilar.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Ijtimoiy siyosat tushunchasi va mazmun, maqsadi kishilar ijtimoiy ehtiyojlari va manfaatlarini qondirish, ayrim fuqarolar va ijtimoiy guruhlarini qo'llab-quvvatlash, himoyalash, to'g'ri yo'naltirish va mehnat qobiliyatini qayta tiklash uchun sharoitlar yaratishdan iborat. Bunga samarali me'yoriy qadriyatlar tizimini yaratish; fuqarolarga ijtimoiy meyorlarni amalda ta'sir ettirish, ularning xulq-atvorini ijtimoiy tartibga solish vositasi sifatida uning ta'sirini yuqori darajaga ko'tarish, ijtimoiy tug'ilajak ehtiyojlar va, manfaatlar bilan ularni qanoatlantirish imkoniyatlarining aniqligi, obyektivligi, me'yoriy ko'rsatmalarga zid bo'lmasligi va boshqalar orasidagi o'xshashlik tushuniladi. Ilmiy asoslangan, barcha qatlamlar va guruhlar manfaatlari hamda ehtiyojlarni hisobga oluvchi ijtimoiy siyosat jamiyatni barqarorlikka olib keladi, jamoaviy birdamlikni, ijtimoiy keskinlik yuzaga kelmasligini, ijtimoiy axloq gumanitarlashuvini, ijtimoiy-ruhiy maqbul iqlim yuzaga kelishini ta'minlaydi.

Ijtimoiy siyosat ikki xil – yaqin davrga va uzoq istiqbolga mo'ljallangan bo'lishi mumkin. Yaqin yillar uchun mo'ljallangan ijtimoiy siyosat aholi turmush tarzining yanada og'irlashuviga yo'l qo'ymaslik, bandlik siyosatini samarali olib borish va ishsizlikning jadal oshishini cheklash; aholi turli qatlamlari va guruhlarining moddiy ahvolini va turmush sharoitlarini tadrijiy ravishda yaxshilash uchun zarur imkoniyatlarni yaratishni nazarda tutadi. Uzoq muddatli ijtimoiy siyosatga samarali rag'batlantirish vositalarini ishlab chiqish va amalga oshirilishini ta'minlash yo'li bilan fuqarolar tashabbuskorligi va tadbirkorligini rivojlantirish uchun sharoitlar yaratishni kiritish mumkin.

Ijtimoiy davlat har bir inson uchun ijtimoiy tenglik va adolat prinsiplari asosida munosib yashash sharoitlarini yaratib beradi. Ijtimoiy davlat muhtojlarga uy-joy, yashash uchun zarur bo'lgan iste'mol tovarlarining eng kam miqdori belgilab qo'yilishini nazarda tutadi, u shaxs va uning oilasi munosib hayot kechirishi uchun yetadigan ish haqi, bandlikni ta'minlash, xavfsiz mehnat sharoitini yaratish, kambag'allikni qisqartirishni talab qiladi. Shular qatorida yashash uchun zarur resurslar – ichimlik suvi, tabiiy gaz, elektr energiyasi, transport va boshqa qulayliklar bilan ta'minlanish, majburiy mehnatga taqiq qo'yish ham ijtimoiy davlatda muhim ahamiyat kasb etadi[6].

Jamiyat umumiy farovonligini, gumanitarlashtirish darajasini oshirish va inson huquqlarini himoya qilish, fuqarolar mehnat va turmush sharoitlarini yaxshilash, aholining kam ta'minlangan qatlamlariga yordam ko'rsatish va qo'llab-quvvatlash: bolalar, onalar, keksa kishilar, yetimlar, nogironlar, qochoqlar, ishsizlar va boshqa manfaatlar, kishilarning manfaatlari orqali boshqarish ijtimoiy siyosatning muhim tamoyillaridan biri hisoblanadi.

Aholining ijtimoiy barqarorligini ta'minlashda ijtimoiy siyosat muhim ahamiyatga ega. Chunki mamlakatda keskin ijtimoiy tabaqalanishni oldini olish ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashda muhim hisoblanadi. Ijtimoiy tabaqalanishga ijtimoiy adolatsizlik va ommaviy nizolar manbai sifatida qaraladi. Shuning uchun ham ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash ijtimoiy siyosatning muhim qismi sanaladi [3:930-931].

Uchinchi ming yillikka kelib, global dunyoda oddiy insonlarning hayotdagi o'rni, davlatning ular oldidagi maqsad hamda vazifalari aynan nimalarda ustuvor darajada namoyon bo'layotganiga e'tibor qarataylik. Eng avvalo, bu — to'liq va mahsuldor bandlikni ta'minlash, mehnatga munosib haq to'lanishiga, ijtimoiy himoya va muloqotga erishish, qashshoqlikni yo'qotish, inson huquqlari hamda erkinligini kafolatlash, mehnat munosabatlaridagi har qanday kamsitishlarni bartaraf etish, ayollar va erkaklar tengligini ta'minlash, bolalar mehnati hamda majburiy mehnatga butunlay chek qo'yishga erishish, atrof-muhitni himoyalash kabi vazifalardan iboratdir. Afsuski, bugun global mehnat bozori bu maqsadlarga erishishda yangidan-yangi to'siqlarga uchramoqda va ta'bir joiz bo'lsa, ular ijtimoiy mehnat sohasining zamonaviy qurilmasi poydevorini nuratmoqda.

Eng asosiy muammolar nimalarda ko'rinadi? Birinchi muammo norasmiy bandlik o'sishi, norasmiy sektorning rivojlanishi va kengayishi bo'lib, u soliq to'lovlaridan tushadigan daromadlar kamayishiga, rasmiy sektordagi raqobatdoshlikning pasayishiga, eng yomoni, ijtimoiy dasturlarning qisqartirilishi va yetarlicha moliyalashtirilmasligiga olib kelmoqda.

Ikkinchi muammo masofaviy va ijara tariqasidagi mehnat, autsorsing hamda autstaffing kabi mehnat mohiyatini tubdan yangilovchi formatning paydo bo'lishi bilan bog'liq. Bu esa o'z-o'zidan,

mehnat munosabatlari sohasining shakl-shamoyilini keskin o'zgartirib, ijtimoiy himoyani juda past darajaga olib keluvchi nostandart bandlik shakllarida namoyon bo'lmoqda.

Uchinchi global muammo raqamli texnologiyalarning ijtimoiy hayotda tobora faol qo'llanilayotganiga borib taqaladi. E'tibor bering, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining tezkor rivojlanishi hisobiga yaqin 25 yilda sayyoramiz miqyosida ish joylarining 47 foizga qisqarishi taxmin qilinmoqda. Tahlilchilarning hisob-kitoblariga ko'ra, yaqin 15 yildan so'ng, deylik, buxgalteriya, sog'liqni saqlash, advokatura, oliy ta'lim va xalq ta'limi sohalaridagi mavjud mansabdor xizmatchilar o'rinlariga deyarli ehtiyoj qolmaydi. Demakki, bugungi dolg'ali zamon bizning oldimizga asosi bundan 100 yil avval yaratilgan ijtimoiy himoyaning klassik tizimlarini qayta shakllantirishni taqozo etayotir[4].

Xalqaro miqyosda ijtimoiy himoya eng kam darajasining tan olingan 9 turi mavjud bo'lib, bular tibbiy xizmat, ishsizlik bo'yicha nafaqa, baxtsiz hodisa yoki kasb kasalligi natijasida yetkazilgan zararni qoplash bo'yicha nafaqa, homiladorlik va tug'ish nafaqasi, boquvchisini yo'qotishi munosabati bilan beriladigan nafaqa, kasallik bo'yicha nafaqa, qarilik pensiyasi, oilaviy nafaqa, nogironlik bo'yicha nafaqalarni o'z ichiga oladi. E'tiborli jihati shundaki, ushbu xizmatlarning 5 turi to'liq, 2 turi esa qisman ijtimoiy sug'urta tizimi bilan qamrab olingan xodimning hissasiga to'g'ri keladi. Biroq afsuski, bugungi kunga kelib, ijtimoiy sug'urtalangan xodimlar soni borgan sari kamayib ketayapti.

Xalqaro mehnat tashkiloti ma'lumotlariga ko'ra, ayni paytda dunyo aholisining 55 foizi ijtimoiy himoyadan mahrum bo'lsa, atigi 29 foizi kompleks ijtimoiy ta'minotdan foydalanish imkoniyatiga ega. Pensiya yoshidagi keksalarning 68 foizi qarilik pensiyasini oladi. Bu esa ko'plab davlatlarda ham jamg'arib boriladigan, ham sug'urtali pensiya ta'minoti yetarlicha rivojlanmaganligini ko'rsatadi. Yana bir og'ir muammo— taraqqiy topgan yigirma birinchi asrda ham, afsuski, insonlarning sog'liqni saqlashga bo'lgan huquqi dunyoning ko'pgina mintaqalarida hali real haqiqatga aylanmadi. Bu, ayniqsa, aholining 56 foizi mazkur imtiyozdan mahrum bo'lgan qishloq joylariga taalluqlidir. Demak, bu borada muhokama qilinishi lozim bo'lgan mavzular yetarli.

Bugun yurtimizda inson omili oliy qadriyat darajasiga ko'tarildi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning "Odamlar ertaga emas, bugun baxtli yashashni istaydilar", degan tamoyilni ilgari surishi va buni bugungi siyosatimizning ustuvor yo'nalishiga aylantirishida ham aynan shu mazmun-mohiyat mujassamdir. Mazkur prinsip ijrosi o'laroq, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan insonparvar siyosat odamlar hayotiga yangicha mazmun baxsh etmoqda.

Ijtimoiy siyosat mamlakatimizda davlat siyosatining eng muhim ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib qolmoqda. Ijtimoiy qo'llab-quvvatlashning aniq manzilli xususiyatga ega ekani har bir muhtoj insonga uning real ehtiyojini hisobga olgan holda yordam ko'rsatish imkonini bermoqda. Bunda ushbu toifaga mansub hech bir inson e'tibordan chetda qolmasligiga alohida ahamiyat qaratilmoqda. Shu asosda jamiyatimizning ijtimoiy manzarasi butunlay o'zgarmoqda, samarali boshqaruvning natijadorligi oshmoqda, eng muhimi, odamlarning hayotga, mehnatga, o'zining taqdiri va ertangi kunga ishonchi ortmoqda.

Yurtimizda ijtimoiy muammolarni hal etishning mutlaqo yangi va o'ziga xos tizimi yaratildi. Keyingi paytda "temir daftar", "ayollar daftari", "yoshlar daftari", "mahallabay" va "xonadonbay" ishlash usullari aynan shu maqsadda joriy etilmoqda. Shu asosda muammoga oid mavhum ko'rsatkichlar emas, balki yordam va ko'makka muhtoj har bir oila va fuqaroning, xotin-qizlar, yoshlarning muammolari o'z joyida aniq o'rganilmoqda, ular vaqtida va samarali hal etilmoqda.

Bugungi kunda xalq farovonligini, odamlarning hayot darajasini har tomonlama oshirish, buning uchun yangi ish o'rinlari, daromad manbalarini yaratish, kambag'allikni qisqartirish, qishloq va shaharlarimizni obod qilish iqtisodiy strategiyamizning eng muhim yo'nalishlaridan biri bo'lib qolmoqda. Keksalar, nogironlar, og'ir ahvolga tushib qolgan insonlarni qo'llab-quvvatlash, ularga mehr va muruvvat ko'rsatish kabi ezgu an'analar bugungi kunda yangicha ma'no-mazmun, amaliy harakatlar bilan boyib, takomillashib bormoqda. Bu borada, ayniqsa, "Obod qishloq", "Obod mahalla", "Besh muhim tashabbus", "Har bir oila – tadbirkor", "Yoshlar – kelajagimiz" kabi dasturlar o'z ijobiy natijasini bermoqda. Birgina "Obod qishloq" va "Obod mahalla" dasturlari doirasida 2021-yilda barcha shahar va tumanlardagi jami 8 mingga yaqin qishloq va mahallada qurilish, ta'mirlash va obodonlashtirish ishlari amalga oshirilmoqda.

Mamlakatimizda ehtiyojmandlarga ijtimoiy yordam ko'rsatishning keng qamrovli mexanizmi yo'lga qo'yilmoqda. Prezident farmoniga muvofiq, ijtimoiy yordamning barcha turlarini bir xil mezon va bir xil hujjatga muvofiq taqdim etish imkonini beradigan "Yagona ijtimoiy reyestr" yaratilmoqda. Yil oxiriga qadar tizim barcha hududlarda bosqichma-bosqich joriy etiladi. Bu tizim orqali ma'lumotlarni tizimlashtirish har bir ijtimoiy yordam oluvchining ehtiyoj darajasini hisobga olgan holda amalga oshiriladi. U oila a'zolarining daromadlari, mol-mulki, bank hisoblari, olingan kreditlar va avtomobillar to'g'risidagi turli idoralarning tegishli bazalarida mavjud bo'lgan ma'lumotlar asosida aniqlanadi.

Istiqbolda "Yagona ijtimoiy reyestr" dasturining to'liq ishga tushirilishi inson omilini sezilarli darajada minimallashtiradi va natijada ijtimoiy yordamni taqsimlashdagi korrupsiya holatlarini imkon qadar bartaraf etadi. Shuni ham ta'kidlash kerakki, aholining eng kambag'al qatlamlarini ijtimoiy himoya qilish va qo'llab-quvvatlash siyosati ehtiyojmand oilalarga beriladigan yordam pullari bilan cheklanib qolmasdan asosiy maqsad — aholining iqtisodiy farovonligi darajasini oshirish uchun sharoit yaratishdir. Odatda kambag'allikka tushib qolishdan ko'ra, undan chiqish anchayin mushkul hisoblanadi. Shu bois davlat tomonidan ijtimoiy qo'llab-quvvatlash odamlarni bosqichma bosqich kambag'allikdan chiqarish hisoblanadi — boshqacha aytganda, odamlarni ana shu holatda tutib turishdan ko'ra, kambag'allar toifasidan chiqarish vositasi sifatida ko'proq o'zini ko'rsatishi uchun tegishli sharoitlarni yaratish davlat ijtimoiy siyosatining ustuvor vazifasi etib belgilangan[5].

XULOSA

Ijtimoiy sohani takomillashtirish va bu boradagi islohotlar bilan aloqador bo'lgan idoraviy axborot tizimlari, elektron resurs va ma'lumotlar bazalari mavjud emasligi ham bu boradagi ishlarimiz rivojiga halal bermoqda. Mamlakatimizning ijtimoiy-iqtisodiy hayotiga oid va jamoatchilikda alohida qiziqish uyg'otadigan o'ta muhim masalalarga doir qarorlarni qabul qilishda jamoatchilik bilan maslahatlar, jamoatchilik eshituvlarini o'tkazish majburiyligini aniq belgilash kerak. Jamoatchilik ma'qul desa – ma'qul, noma'qul desa – noma'qul bo'ladi.

Prezidentimiz ta'kidlaganlaridek, «Inson manfaatlari hamma narsadan ustun» degan tamoyil asosida, xalqimiz hayotini tubdan yaxshilash bo'yicha olib borayotgan keng ko'lamli ijtimoiy islohotlarni davom ettirish uchun quyidagi vazifalarni hal etmog'imiz kerak[1:30-36]. Birinchidan, aholi farovonligini oshirish va uning ijtimoiy himoyasini yanada kuchaytirish. Ikkinchidan, sog'liqni saqlash tizimini rivojlantirish, tibbiy xizmat sifatini oshirish bo'yicha islohotlarimizni ham qat'iyat bilan davom ettirish. Uchinchidan, xotin-qizlar va yoshlarni qo'llab-quvvatlash borasidagi ishlarni yangi bosqichga ko'tarish. To'rtinchidan, aholi o'rtasida sog'lom turmush tarzini keng qaror toptirish. Beshinchidan, atrof-muhitni muhofaza qilish va ekologik holatni yaxshilashga e'tiborni kuchaytirish. Oltinchidan, madaniyat va san'at muassasalariga alohida e'tibor qaratish, ularning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash choralari ko'rish.

Xulosa qilib aytganda, "Yangi O'zbekiston – ijtimoiy davlat" degan tamoyilni konstitutsiyaviy qoida sifatida muhrlanayotgani e'tirofga molik.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Mirziyoyev Sh.M. Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari. – T.: O'zbekiston, 2020. – 456 b.
2. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – Toshkent: "O'zbekiston" nashriyoti, 2021. – 464 b.
3. Tadjibayeva R.O. Ijtimoiy siyosat va uning yoshlar ongiga ta'siri. Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb masalalari. Volume 3 | NUU Conference 2 | 2022. – B. 930-933.
4. Xalq so'zi gazetasi. 14-aprel 2018.
5. https://kun.uz/uz/news/2021/12/14/ijtimoiy_siyosat_-_O'zbekistonda_davlat_siyosatining_muhim_ustuvor_yo'nalishi
6. <https://uzlidep.uz/uz/news-of-party/12604> Yangi O'zbekiston – ijtimoiy davlat.